

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



**REKTOR**  
**Madjidov**

**RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI VA DIFFERENSIAL PSIXOLOGIYA  
FANINING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot  
**Ta'lim sohasi:** 310000- Ijtimoiy va xulq atvorga oid fanlar  
**Ta'lim yo'nalishi:** 60310300 – Psixologiya

**Toshkent-2024**

<b>Fan/modul kodi</b> RPD12310	<b>O'quv yili</b> 2024-2025 2025-2026	<b>Semestr</b> 2-3	<b>ECTS - Kreditlar</b> 10	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek/rus		<b>Haftadagi mashg'ulot soatlari</b> 6	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya</b>	120	180	300
<b>2.</b>	<p align="center"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – inson psixik taraqqiyotiga oid qonuniyatlar va omillar, rivojlanishning ijtimoiy vaziyati va yangi tuzilmalari mohiyatini ochib berish. Umr davrlari shakllari va tiplari, muammoga nazariy yondashuvlarni tahlil qilish, talabalarni insonning ona qornida paydo bo'lgan davridan boshlab, to qarilik davrigacha rivojlanishining o'ziga xususiyatlari bilan tanishtirish, shuningdek, yosh bosqichlarida rivojlanish muammolarini amaliy hal etish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - rivojlanish psixologiyasi fanining nazariy asoslari va inson taraqqiyoti qonuniyatlarini tadqiq etish uchun amaliy materiallar bilan qurollantirish; talabalarni inson rivojlanish davrlarining o'ziga xos fiziologik, psixologik, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan tanishtirish; inson umrining har bir bosqichida rivojlanishning ijtimoiy vaziyati, faoliyat turlari va shunga mos ravishda rivojlanish xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar berish va har bir yosh bosqichida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish.</p> <p align="center"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p align="center"><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p align="center"><b>1.1-mavzu. Rivojlanish psixologiyasi fani predmeti</b></p> <p>Asosiy tushunchalar. Irsiyat va muhit. Rivojlanish psixologiyasi predmeti va vazifalari. Rivojlanish psixologiyasining fanlararo tizimda tutgan o'рни. Rivojlanish tushunchasiga ta'rif. “O'sish”, “rivojlanish”, “yetilish”, “yosh” tushunchalari. Filogenez, antropogenez, ontogenez, hayot yo'li tushunchalari. Bolalik tushunchasining tarixiy tahlili. Bolalik tarixi va madaniyatda bolalikning ijtimoiy-tarixiy fenomen sifatida aks etishi. Bola haqidagi fan predmetining tarixiy o'zgarishi – fenomenologiyadan sababiy tushuntirishga o'tish. Bolalar psixologiyasining tarixiy shakllanishi (Ch.Darvin, J.-J.Russo, V.Preyer, S.Xoll). Xronologik, biologik, ijtimoiy va psixologik yosh o'zaro mutanosibli. Rivojlanish vazifalari (R.Xevigxerst). Rivojlanish psixologiyasi bo'limlari: perinatal psixologiya, bolalar psixologiyasi, o'smirlik va o'spirinlik davrlari psixologiyasi, yetuklik davri</p>			

psixologiyasi, gerontopsixologiya. Psixik rivojlanish qonuniyatlari. Psixik rivojlanish butunligi, tuzilmaviyligi va bosqichliligi. Rivojlanish bosqichlarining ketma-ketligi. Rivojlanishda geteroxronlik va nomutanosiblik. Akseleratsiya va retardatsiya. Rivojlanishda sensitiv va inqirozli davrlar.

### **1.2-mavzu. Rivojlanish psixologiyasi metodlari**

Umr rivojlanishi dinamikasini o'rganish metodlari. Tadqiqotning metodologik prinsiplari. Rivojlanish psixologiyasida qo'llaniladigan asosiy metodikalar. Eksperiment metodi. Biografik metod. Observatsion metod (kuzatish va o'zini o'zi kuzatish. Psixodiagnostik metodlar (anketa, so'rovnoma, test). Longitudinal metod.

### **1.3-mavzu. Inson psixik taraqqiyotini tushuntirishga asosiy nazariy yondashuvlar**

Psixik rivojlanish qonuniyatlariga biogenetik yondashuv. Rekapitulyatsiya konsepsiyasi. (St. Xoll). Rivojlanishda tarixiylik va individuallik o'zaro aloqadorligi muammosi. Ontogenezda psixik rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchlarni tushunishga omilli yondashuvlar. Nativizm va empirizm. Preformizm nazariyasi. Uch bosqich nazariyasi (K.Byuler). Yetilish nazariyasi. (A.Gezell). Bola psixik rivojlanishiga normativ yondashuv (A.Gezell, A.Bine, L.Termen). Klassik assotsianizm (Dj.Lokk) rivojlanishda muhit va tajribaning roli haqida. Bixeviorizm va neobixeviorizm rivojlanish muammosi (D.Uotson, E.Torndayk, K.Xall, B.Skinner). Ijtimoiy o'rgatish nazariyasi (A.Bandura, R.Uolters). Konvergensiya nazariyasi (V.Shtern). Rivojlanishni tushuntirishda psixodinamik nazariyalar. Psixoanaliz va rivojlanish nazariyalari (Z.Freyd). Yetishmovchilik kompleksi va sotsial hissiyot rivojlanishni harakatlantiruvchi kuch sifatida. Sibling maqomi va rivojlanish xususiyatlari (A.Adler). Shaxs rivojlanishini tushuntirishda M.Kleyn, A.Freyd, D.Vinnikot, M.Maler g'oyalari. D.Boulbi nazariyasi. Eynsvort eksperimentlari. Shaxs rivojlanishini tushuntirishda epigenetik konsepsiya (E.Erikson). Bolaning intellektual rivojlanishi konsepsiyasi (J.Piaje). Egotsentrik nutq va egotsentrik tafakkur.

Rivojlanish psixologiyasida madaniy-tarixiy konsepsiya. (L.S.Vigotskiy). Yosh tuzilmasi va dinamikasi. Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati tushunchasi. Bola rivojlanishida o'qitish muammosi. Rivojlanishning yaqin zonasi tushunchasi, uning nazariy va amaliy ahamiyati.

Inson psixik rivojlanishini tushuntirishga ijtimoiy-madaniy yondashuv (A.Vallon). Ekologik tizimlar modeli (U.Bronfenbrenner).

### **1.4-mavzu. Perinatal davr**

Perinatal davr: homilaning sensor, motor va reflektor faolligi. Xomiladorlik davri trimestrlarining psixologik xususiyatlari. S.Fanti konsepsiyasi. Xomilaga ta'sir etuvchi teratogen omillar. Perinatal

psixologiyaning umumiy konsepsiyalari. E.Bryudal konsepsiyasi. Perinatal davr inqirozlari. Tug‘ilish aktining psixologik xarakteristikasi (O.Rank, S.Grof). Onalik psixologiyasi.

### **1.5-mavzu. Chaqaloqlik va go‘daklik davri**

Chaqaloqlik davrining umumiy fiziologik xususiyatlari. Apgar shkalasi bo‘yicha fiziologik holatni baholash. Chaqaloqlik davrining psixologik xarakteristikasi. Chaqaloqlik davri inqirozi. Jonlanish kompleksi. Go‘daklik davrida rivojlanishning ijtimoiy vaziyati va yetakchi faoliyat. Go‘daklik davrining psixologik xususiyatlari. Manipulyativ faoliyat, psixik funksiyalar. Emotsional muomala yetakchi faoliyat sifatida. Nutqning vujudga kelishi. Passiv nutq. Aktiv nutq. Avtonom nutq. Kognitiv o‘zgarishlar, psixosotsial rivojlanish. Predmetli faoliyat va o‘yin manbalari. Go‘daklik davrida aqliy rivojlanish. 1 yoshdagi inqiroz.

### **1.6-mavzu. Ilk bolalik davri**

Ilk bolalik davrida bolalarda jismoniy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari. Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati. Ilk bolalik davrida emotsional rivojlanish. Bolaning individual hissiyotlari. Uch yosh inqirozi. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanishi. Rivojlanishdagi buzilishlar.

### **1.7-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi**

Maktabgacha yoshdagi davrda rivojlanishning ijtimoiy vaziyati xususiyatlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy fiziologik xususiyatlari. Maktabgacha yoshdagi davrda kognitiv jarayonlar rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari. Piaje tajribalari. O‘yin - yetakchi faoliyat sifatida. O‘yin turlari. O‘yin atributlari. O‘yin vazifalarining shakllanishi va transformatsiyasi. Didaktik o‘yinlar. Bolalar o‘yinlarining ijtimoiy mazmuni. Rolli-syujetli o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar yetakchi faoliyati sifatida.

### **1.8-mavzu. Maktabga tayyorgarlik muammosi**

Bolaning maktabga tayyorgarligi muammosi. Fiziologik tayyorgarlik. Kognitiv tayyorgarlik. Kommunikativ tayyorgarlik. Ijtimoiy tayyorgarlik. Maktab o‘quvchisi ijtimoiy pozitsiyasi. Maktabga yetilish tushunchasi. Maktabga tayyorgarlikni aniqlash metodikalari.

### **1.9-mavzu. Kichik maktab yoshi davri**

Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlar va anatomik-fiziologik o‘zgarishlar. Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati. 7 yosh inqirozi: yuzaga kelish sabablari, simptomlari. O‘quv faoliyati - kichik maktab yoshidagi bolaning yetakchi faoliyati sifatida. Kichik maktab yosh davrida ijtimoiy-psixologik rivojlanish. Emotsional rivojlanish va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Maktabga moslashish davridagi

qiyinchiliklar. O'zlashtira olmaslik pedagogik-psixologik muammo sifatida. Disleksiya, disgrafiya va ularni psixologik korreksiyasi.

### **1.10- mavzu. O'smirlik davri**

O'smirlik davri inson rivojlanishidagi tub burilish davri sifatida. O'smirlik davridagi asosiy fiziologik va neyroqumoral o'zgarishlar. O'g'il va qiz bolalarda o'smirlik davrida jismoniy rivojlanishdagi farqlar. Akseleratsiya va uning o'ziga xosligi. Retardatsiya. O'smirlik davrida kuzatiladigan asosiy psixologik o'zgarishlar. Pubertat inqirozi. O'smirlik davridagi shaxslararo munosabatlar. O'smirlik davri bo'yicha chet el nazariyalari. O'smirlik davrida xulq-atvorda kuzatiladigan o'zgarishlar. Xarakter aksentuatsiyasi. Deviant xulq-atvor va uning kelib chiqish sabablari. O'smirlik davrida ijtimoiylashuv jarayonining uziga xosligi. O'smirlar submadaniyati.

### **1.11-mavzu. O'spirinlik davri**

O'spirinlik davrida rivojlanishning o'ziga xosligi. O'spirinlik davri inqirozi. Dunyoqarashning kamol topishi. Kasbga yo'naltirish va xayotiy istiqbol. Jinsiy rollar omili va kasb tanlash. O'spirinlik davrining turli ilmiy nazariyalardagi talqini. E.Erikson nazariyasi va aynanlik. Aynanlik komponentlari. D.Marsia va psixosotsial moratoriy.

### **1.12-mavzu. Yetuklik davri psixologiyasi**

Yetuklik davrining davrlashtirilishi. Erta yetuklik, o'rta yetuklik va kechki yetuklik davrlari. Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati. Yetuklik davrida yuz beradigan asosiy fiziologik o'zgarishlar. Yetuklik davrida aqliy bilish jarayonlari rivojlanishi masalalari. Normativ va nonormativ xodisalar. «Umr soati» tushunchasi. «O'rta yoshlar» inqirozi. O'rta yetuklik davrida kognitiv imkoniyatlarning o'zgarishi va saqlanib qolishi. Yetuklik davrida tafakkurning bir maromliligi. Joriy intellekt. Kristallashgan intellekt. Psixosotsial rivojlanishdagi shaxslararo munosabatlar. Salomatlik masalasi yetuklik davrining asosiy muammosi sifatida. Yetuklik davrida qadriyatlar tizimi. Motivatsiya inqirozi. Ijtimoiy mavqe muammosi.

### **1.13-mavzu. Gerontopsixologiya**

Gerontopsixologiyaning fan sifatida shakllanishi. Hozirgi davrning asosiy ijtimoiy-gerontologik muammolari. Keksalik va qarish. Qarilik davrining anatomik-fiziologik xususiyatlari va asosiy jismoniy o'zgarishlari. Qarish nazariyalari.

Qarilik davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlari. Qarilik davrida kognitiv soxaning o'ziga xosligi. Qarilik davrining ijtimoiy muammolari. Emotsional yetishmovchilik sindromi. Eydjizm. Keksalar va qariyalarni ijtimoiy-psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash muammolari.

Uzoq umr ko'ruvchilar psixologiyasi. Uzoq umr ko'rishning biologik, ijtimoiy va psixologik omillari. Ijodiy salohiyat. Qariyalar bilan psixologik-

konsultatsiya tadbirlarini olib borish xususiyatlari.

### **1.14-mavzu. Differensial psixologiya individual farqlar haqidagi fan sifatida**

Differensial psixologiya fan sifatida, uning predmeti va vazifalari. Psixologiyaning boshqa ilmiy sohalari bilan kesishish sohalari. Individual farqlar psixologiyasining asosiy yo'nalishlari. Differensial psixologik tadqiqot yo'nalishlari. Differensial psixologiya usullarining tasnifi.

Individual farqlar manbalari. Integral individuallik va uning tuzilishi. Individuallikning shakllanish va rivojlanish mexanizmlari. Individual farqlar va rivojlanish. Jins va rivojlanishdagi individual tafovutlar. Individuallikning rasmiy xususiyatlaridagi farqlar: psixik jarayonlar, yarim sharlar assimetriyasi, asab tizimining xususiyatlari va temperament. Individuallikning mazmunli tomoni. Xarakter. Intellect va qobiliyatlar.

### **1.15-mavzu. Ijtimoiy-sinfy tafovutlar**

Ijtimoiy-sinfy tafovutlar. Psixologik rivojlanishda sinfiy tafovutlar. Ijtimoiy-iqtisodiy mavqe va intellect. Ijtimoiy-sinfy tafovutlarning o'ziga xosligi. Rivojlanish bosqichlari va madaniy ustanovkalar. Til xulq-atvorga ta'sir etuvchi omil sifatida. Oila tuzilmasi va individual tafovutlar. Kasbga xos individual xususiyatlar.

## **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Rivojlanish psixologiyasida davrlashtirish muammosi
2. Rivojlanishda yuzaga keladigan buzilishlar xarakteristikasi
3. Perinatal psixologiyaning asosiy muammolari
4. Bolalik davrida psixik deprivatsiya
5. Umr davrlari inqirozlari
6. O'smirlik davrida fiziologik rivojlanish xususiyatlari va uning o'smir psixologiyasiga ta'siri
7. O'spirinlik davrida kasb tanlashga doir muammolar
8. Yetuklik davrida kognitiv soha rivojlanish xususiyatlari
9. Gerontopsixologiya muammolari
10. Senil demensiya zamonaviy muammo sifatida
11. Differensial psixologiya usullarining tasnifi
12. Androgenetik xulq-atvorni boshqarish bilan bog'liq barqaror xulq-atvor dasturlari.
13. Shaxsning jinsiy xulq-atvori
14. Erkaklar va ayollarning ijtimoiy stereotiplari.
15. Individuallikning rasmiy xususiyatlaridagi farqlar.

	<p>Ushbu o'quv fani bo'yicha mustaqil ta'lim olish darslik va o'quv qo'llanmalardagi tegishli mavzularni o'rganishni, fan bo'yicha maxsus (shu jumladan, ilmiy-tadqiqiy maqolalar va monografiyalar) adabiyotlarni o'rganishni, mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
<p>3.</p>	<p style="text-align: center;"><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• rivojlanish psixologiyasining asosiy bosqichlari to'g'risida <b><i>tasavvurga ega bo'lishi</i></b>;</li> <li>• ontogenezdada psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari va ontogenezdada psixik rivojlanishning asosiy davrlari haqida bilimga ega bo'lishlari; Ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik muammosini hal qilishning asosiy nazariy yondashuvlari va ularni ta'lim va tarbiya amaliyotida qo'llashni bilishlari; ontogenezning turli bosqichlarida rivojlanishning xavf omillari va hayotiylikining ahamiyati; ontogenezning turli bosqichlarida insonning yosh-psixologik xususiyatlari haqida <b><i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i></b>;</li> </ul> <p>xalq ta'limi, ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, psixologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishda, psixologik maslahat berishda, shuningdek, inson aqliy rivojlanishining borishi va dinamikasini nazorat qilishning maxsus vazifalarini hal qilishda insonning yosh-psixologik xususiyatlarini yetarlicha ko'rsatkichlarni aniqlash; xavf omillari va hayotiylikini aniqlash asosida shaxs rivojlanishining oldini olish, tuzatish va optimallashtirish bo'yicha ishlarni olib borish, bolalar, o'spirinlarni yetuklikda rivojlantirish va o'qitish bo'yicha psixologik maslahatlar berish; yoshga bog'liq rivojlanish inqirozlarini psixologik qo'llab-quvvatlash bilan, qarish va qarilik jarayonlarini bilish; ta'lim jarayonida yoshga oid xususiyatlarni hisobga olish <b><i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i></b>.</p>
<p>2.</p>	<p style="text-align: center;"><b>Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya</b></p> <p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – talabalarda maxsus psixologiya bo'yicha bilim, turli nuqsoni mavjud bo'lgan insonlar psixologiyasini o'rganish va tahlil qilish yuzasidan ko'nikma va malakalarni shakllantirish</p> <p><b>Fanning vazifalari</b> – rivojlanishida turli nuqsoni mavjud bo'lgan shaxslar psixologiyasini o'rganish; har bir nuqsonning inson psixologiyasiga ta'siri va va shu nuqson xususiyatiga ko'ra psixologik jihatlarini o'rganish; nuqsoni mavjud bo'lgan shaxslarni amaliy o'rganish usullari haqidagi tushunchalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>2.1-mavzu. Maxsus psixologiya fan sifatida. Defekt va kompensatsiya nazariyasi</b></p> <p>Maxsus psixologiya fani predmeti va vazifalari. Maxsus psixologiyaning tarixiy shakllanishi. Maxsus psixologiyani o'rganish obyekti. Maxsus</p>

psixologiyani ilmiy tahlil etish uslublari. Maxsus psixologiyaning tarmoqlari: tiflopsixologiya (ko‘zi ojiz shaxslarning psixologiyasi), surdopsixologiya (kar-soqov shaxslar psixologiyasi), oligofren psixologiyasi (aqliy rivojlanishda ortda qolganlar psixologiyasi). Rivojlanishning o‘rtacha statistik normasi tushunchasi. Rivojlanishda normadan og‘ish tushunchasi. Rivojlanishda buzilishlar yuzaga kelish sabablari. Buzilishlar yuzaga kelishidagi biologik va sotsiologik omillar. L.S.Vigotskiyning birlamchi, ikkilamchi nuqson haqidagi g‘oyalari. “Nuqson”. “Nuqson tuzilishi”, “alohida ehtiyojli bolalar”, “organik va funktsional buzilishlar”, “korrektsiya”, “kompensatsiya”, “integratsiya” tushunchalari. Rivojlanishida buzilishlar mavjud bo‘lgan bolalar bilan ishlashda rivojlanish, o‘qitish va tarbiyalashning o‘zaro bog‘liqligi. Rivojlanishdagi buzilishlar variantlari (V.V.Lebedinskiy bo‘yicha). Kompensatsiya nazariyasi. A.Adler g‘oyalari. L.S.Vigotskiy g‘oyalari. Kompensatsiya turlari.

## **2.2- mavzu. Surdopsixologiyaning nazariy asoslari. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixologik xususiyatlari**

Surdopsixologiyaning fan sifatida rivojlanishi va tarkib topishi uchun zaruriy omillar. Surdopsixologiyani o‘rganish obyektlari: tug‘ma kar-soqov bolalar, hayot davomida kar-soqov bo‘lib qolgan shaxslar, zaif eshituvchi shaxslar. Surdopsixologiyani o‘rganish uslublari: kuzatish, anketa, test, biografiya va h.k. Surdopsixologiyani boshqa fanlar bilan bog‘liq ravishda rivojlanishi. Surdopsixologiyaning hozirgi davrdagi dolzarb muammolari. Yozma va daktil nutqning bola psixosotsial rivojlanishidagi kompensator ahamiyati. Imo-ishorali nutq ahamiyati. Kar bolalarda nutq rivojlanmasligining o‘ziga xosligi. Kar-soqov va zaif eshituvchilarda kognitiv jarayonlarning o‘ziga xosligi. Kar-soqov bolalar bilan ishlash davomida psixolog faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari.

## **2.3-mavzu. Tiflopsixologiya fani, vazifalari va uslubiyati. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolaning o‘ziga xos xususiyatlari**

Ko‘rish organining inson hayotidagi ahamiyati. Ko‘zi ojizlik yoki zaif ko‘rishga olib keladigan omillar. Tiflopsixologiyaning fan sifatida rivojlanishi va tarkib topishi uchun zaruriy omillar. Tiflopsixologiyani o‘rganish obyektlari: tug‘ma ko‘r bolalar, hayot davomida ko‘r bo‘lib qolgan shaxslar va zaif ko‘ruvchilarning o‘ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlari. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarda kognitiv jarayonlarning kechishi. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchilarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari. Ko‘zi ojizlar va zaif ko‘ruvchilar bilan psixokorreksion tadbirlar olib borishning o‘ziga xosligi.

## **2.4-mavzu. Oligofren bolalarning psixologik xususiyatlari**

Oligofren psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi va tarkib topishi uchun zaruriy omillar. “Aqli zaiflik” tushunchasi. Aqli zaif bolalar klassifikatsiyasi. Oligofreniyaning uchta darajasi: idiotiya, imbetsiliya, debilizm, ularning



linik-psixologik xarakteristikasi. Oligofreniyani erta tashxis qilish. Dementsiya. Rezidual va progressiv dementsiya. M.S.Pevzner klassifikatsiyasi. Oligofren bolalarning psixik rivojlanishi sust bolalardan farqlash belgilari. Maxsus maktab-internatlarda ishlovchi psixolog ishining o'ziga xos xususiyatlari.

### **2.5-mavzu. Psixik rivojlanishi sust bolalar psixologiyasi**

Psixik rivojlanish sustligi tushunchasi. Psixik rivojlanish sustligi etiologiyasi va diagnostikasi. Psixik rivojlanishi sust bolalar psixologiyasi. Psixik infantilizm, uning shakllari. (M.S.Pevzner, K.S.Lebedinskiy). Minimal bosh miya disfunktsiyasi tushunchasi. Bolalarda diqqat yetishmovchiligi sindromi va giperaktivlik. Maxsus korreksion-rivojlantirish ta'lim kontseptsiyasi.

### **2.6- mavzu. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari**

Nutqning psixik rivojlanishdagi ahamiyati. Nutq buzilishlari klassifikatsiyasi.(bradilaliya, alaliya, taxilaliya, disfoniya, duduqlanish, rinolaliya, dizartriya, afaziya. Yozma nutq buzilishlari (digrafiya, disleksiya). Nutqida kamchiligi bor bolalar guruhining psixologik tavsifi. Nutq buzilishi etiologiyasi. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi va psixik rivojlanishning sustlashishi. Nutqi rivojlanmagan maktab yoshiga yetmagan bolalar muloqotining xususiyatlari. Nutq buzilishlari profilaktikasi. Nutqida buzilishi bor bo'lgan bolalar bilan psixokorreksiya va profilaktika ishlarini olib borish.

### **2.7-mavzu. Bolalarda emotsional-irodaviy buzilishlar**

Bolalarda erta autizm buzilishlar ko'rinishi sifatida. Autizmga chalingan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari. Erta autizmning psixologik klassifikatsiyasi. Autizmga chalingan bolalar bilan psixologik-pedagogik tadbirlarni amalga oshirish spetsifikasi.

### **2.8-mavzu. Tayanch harakat a'zolarida buzilishlar bo'lgan bolalar psixologiyasi**

Harakatlanish va psixik rivojlanish o'zaro mutanosibli. Bolalarda markaziy falaj. Markaziy falajning yuzaga kelish sabablari. Markaziy falaj shakllari. Markaziy asab tizimi falajlangan bolalar psixologiyasi. Markaziy asab tizimi falajlangan bolalarning rivojlanish xususiyatlari. Markaziy asab tizimi falajlangan bolalar bilan psixologik tadbirlar o'tkazish spetsifikasi.

## **III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Maxsus psixologiyaning asosiy muammolari.
2. Rivojlanishda buzilishlar kelib chiqish omillari.
3. Ko'zi ojiz va zaif kuruvchilar kognitiv jarayonlari rivojlanishining o'ziga

	<p>xos xususiyatlari.</p> <p>4. Zaif eshituvchi bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlashning psixologik va ijtimoiy-psixologik jihatlari.</p> <p>5. Bosh miya falaji bilan xastalangan bolalar bilan psixologik yordam tadbirlarini tashkil etish.</p> <p>6. Autizm: muammo va tadqiqotlar.</p> <p>7. Nutq buzilishlari: diagnostika va kompleks korreksiya.</p> <p>8. Rivojlanishi sust bolalar psixosotsial rehabilitatsiyasi muammolari.</p> <p>9. Diqqat yetishmovchiligi sindromi va giperaktivlik: psixologik yordamni tashkil etish.</p> <p>10. Rivojlanish buzilishlari korreksiyasini ushbu metodologik manbaalari.</p> <p>Ushbu o'quv fani bo'yicha mustaqil ta'lim olish darslik va o'quv qo'llanmalardagi tegishli mavzularni o'rganishni, fan bo'yicha maxsus (shu jumladan, ilmiy-tadqiqiy maqolalar va monografiyalar) adabiyotlarni o'rganishni, mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- maxsus psixologiya fani predmeti, vazifalari, obyekti; dizontogenez tushunchasi; birlamchi ikkilamchi va uchlamchi nuqsonlar; psixik taraqqiyotda buzilishlar yuzaga kelish omillari haqida tasavvurga ega bo'lishi;</li> <li>- aqli zaif bolalar psixologik xususiyatlarini talqin etishni; ruhiy rivojlanishi sust bolalar bilan psixologik ishlashni; surdopsixologiya qonuniyatlarini; tiflopsixologiya va ko'zi ojizlar, ko'rish qobiliyati past shaxslar psixologik xususiyatlarini; markaziy falaj bilan xastalangan bolalar bilan psixologik tadbirlarni bilishi va ulardan foydalana olishi;</li> <li>- ruhiy rivojlanishi sust bolalar bilan ishlash; nuqsoni bor bolalar bilan kognitiv va emotsional-shaxslilik sohalarni korreksiya qilish; nuqsoni mavjud bolalar va hayot davomida orttirilgan nuqsonlar bilan xastalangan shaxslarga psixologik yordam ko'rsatish; nuqsoni mavjud bolalarda kompensatsion imkoniyatlarni yuzaga keltirish bo'yicha psixokorreksion ishlar olib borish ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• blis-so'rov;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil</p>

	mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Rahimova I.I., Ziyavitdinova U.Z., Kamalova Z.X. Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya. Darslik. – T.: “Ma’rifat”, 2024. 240 bet.</li> <li>2. Mo‘minova L.R. Maxsus psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2020. – 272 b.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo‘shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>3. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.</li> <li>4. Психология развития личности (средний возраст, старение, смерть). Полный курс. Под ред. А.А.Реана.-2017.</li> <li>5. Developmental Psychology: Childhood and Adolescence, Fourth Canadian Edition by David R. Shaffer, Katherine Kipp, Eileen Wood, and Teena Willough by Nelson Education Ltd., 1120 Birchmount Road, Toronto, Ontario, M1K 5G4. Kraig G. Bokum D. Psychology Developmental. 2013.</li> <li>6. Базылевич Т.Ф. Дифференциальная психология: Учебник / Т.Ф. Базылевич. - М.: НИЦ ИНФРА-М, 2015. - 224 с.</li> <li>7. Карабанова О.А. Психология развития и возрастная психология. М.2014.</li> <li>8. Sh.A.Do‘stmuxamedova, X.A.Tillashayxova, G.Yu Baykununsova., G.Z.Ziyavitdinova Umumiy psixologiya (2-kitob) (Yosh davrlari va pedagogik psixologiya). T. 2021</li> <li>9. Ғозиев Э. Онтогенез психологияси. Т. 2024.</li> <li>10. Выготский Л. С. Основные проблемы дефектологии. М., 2006.</li> <li>11. Лубовский М.М. Специальная психология. М. 2008 й.</li> <li>12. Мамедов К., Шоумаров Ф. "Ақли заиф болалар психологияси" Тошкент, 1994,107-114-бетлар.</li> <li>13. Лапшин В. А., Пузенев Б. П. Основы дефектологии. М., 2000.</li> <li>14. Лебединский В. В. Нарушения психического развития у детей. М. 2005</li> <li>15. Мамайчук И. И. Психокоррекция детей и подростков с нарушениями в развитии. СПб., 2000.</li> <li>16. Солнцева Л. И. Развитие компенсаторных процессов у слепых детей дошкольного возраста. М., 2000.</li> <li>17. Специальная психология: учебник для вузов / В. И. Лубовский [и др.]. — 7-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2023. — 598 с.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbaalari</b></p>

	<p>18.<a href="http://www.gumer.ru">http://www.gumer.ru</a>  19.<a href="http://www.twirpx.ru">http://www.twirpx.ru</a>  20.<a href="http://www.voppsy.ru">http://www.voppsy.ru</a>  21.<a href="http://koob.ru">http://koob.ru</a></p>
7.	O‘quv dasturi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Kengashining 20__yil ____ _____ gi __ sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
8.	<p><b>Fan/modul uchun ma’sular:</b>  D.I.Ilxamova – O‘zMU, “Ijtimoiy psixologiya” kafedrası professor v.b., psixologiya fanlari doktori, dotsent  I.I.Raximova - O‘zMU, “Ijtimoiy psixologiya” kafedrası dotsenti, PhD, dotsent</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b>  K.B.Kadirov - Psixologiya fanlari doktori (DSc) professor  G.Z.Ziyavitdinova - Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotset v.b.</p>